









II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 68 915,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 7,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2023- yil	2024- yil	
	I. YAHM	58 173,7	68 915,7	107,6
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	57 165,3	67 817,5	107,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 008,4	1 098,2	108,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	57 165,3	67 817,5	107,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18 605,4	20 206,1	104,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	13 221,8	16 687,6	109,9
	sanoat	8 659,5	11 294,3	108,3
	qurilish	4 562,3	5 393,3	112,8
	Xizmatlar	25 338,1	30 923,8	108,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10 725,6	13 324,0	111,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 836,7	3 705,4	117,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	11 775,8	13 894,3	104,0


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi
(% da)

2023- yil yanvar-dekabr



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)


2024- yil yanvar-dekabr



Yalpi hududiy mahsulotda 2024- yil yanvar-dekabr oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 753 226,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 49 791,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Oʻzbekiston Respublikasida 621 715,9 mlrd. soʻmni, Namangan viloyatida esa 42 476,9 mlrd. soʻmni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2024- yil yanvar-dekabr oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 54,3 % (2023- yil yanvar-dekabr 54,3 %) ni tashkil etgan boʻlsa, Namangan viloyatining ulushi 73,4 % (2023- yil yanvar-dekabr 74,3 %) ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,4 % ni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-dekabr oyida – 74,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi (ming soʻm)

Koʻrsatkichlar	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr
Yanvar-dekabr	19 187,8	22 238,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-dekabr)

Ko'rsatkichlar	mlrd so'm		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	1 454 573,9	68 915,7	4,7
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 386 610,0	67 817,5	4,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	67 963,9	1 098,2	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 386 610,0	67 817,5	4,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	266 565,0	20 206,1	7,6
Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda)	462 696,5	16 687,6	3,6
sanoat	365 894,6	11 294,3	3,1
qurilish	96 801,9	5 393,3	5,6
Xizmatlar	657 348,5	30 923,8	4,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	173 555,3	13 324,0	7,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	112 328,6	3 705,4	3,3
boshqa xizmatlar	371 464,6	13 894,3	3,7

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,8 %), sanoatda – 108,3 % (16,7 %), qurilishda – 112,8 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 108,8 % ni (45,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,7 % (19,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 117,6 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (20,4 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yil yanvar-dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

